


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 6 **2026**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 6 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 6

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 6



TOШKENT-2026

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№6 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-6>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Matyakubov Umidjon Raximovich**  
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudonazarov Egambergan Madrahimovich**  
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

### IQTISODIYOT FANLARI

**Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

**Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Boltayev Abdurahim Amanovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Zoirov Erkin Xalilovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## TIBBIYOT FANLARI

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

## ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

### **Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации  
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением  
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## IQTSOD

- 1. Boltayev B. Mixliyev O.**  
QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....7
- 2. Djumabayeva Sh.**  
O‘ZBEKISTONDA NIKOH VA AJRALISH JARAYONLARINING IJTIMOY-DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARI.....11
- 3. Raximov Matqurbon Ravshanbek O‘g‘li.**  
GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHNING ZARURATI.....19
- 4. Rustamboyev Kamronbek Otabek o‘g‘li.**  
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI.....24
- 5. Курбанова Дилфуза Баходировна.**  
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ СФЕР УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ.....27
- 6. Egamberdiyev Shoxruxbek Davronbekovich.**  
KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....33

## FILOLOGIYA

- 1. Jo‘rayeva Muhayyo Abduljalilovna**  
O‘ZBEK VA INGLIZ SO‘ZLASHUV DISKURSIDA DISKURS MARKERLARINING INTERAKTIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....38
- 2. Raximova Dilfuza Masharip qizi.**  
“XX–XXI ASR BRITANIYA ROMANLARIDA SHARQ VA G‘ARB BADIY TAFAKKURI SINTEZI”.....42
- 3. Baxtiyorov Asadbek Dilshod o‘g‘li.**  
ANTONIO JENKINSON VA UNING XIVA XONLIGIGA TASHRIFI.....46
- 4. Ювашева Шоира Махаматовна**  
ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ НОРМ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.....48

## PSIXOLOGIYA

- 1. Mashhura Sultonova Rustamboyevna.**  
YETUKLIK YOSHIDAGI AYOLLARDA O‘Z-O‘ZIDAN QONIQISH DARAJASIGA PSIXOLOGIK RESURLAR VA QADRIYATLAR TIZIMINING TA‘SIRI.....52
- 2. Sherjanova Nodira.**  
MIGRANT OILALARDA TARBIIYALANAYOTGAN O‘SMIRLARDA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR VA EMPATIYA MUNOSABATI.....58

<b>3. Odamova O'g'iljon Kenjayevna.</b> SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI.....	63
--	----

## TARIX

<b>1. Egamberdieva Nigora Azadovna. Raxmatullaeva Azada.</b> XORAZM VOHASIDA ILK DAVLATNING SHAKLANISHI JARAYONINING TAHLILI (ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR ASOSIDA).....	68
<b>2. Abdullayev U.I. Kurshat Y. Satimov B.</b> OROLBO'YIDA MUDOFA ISTEHKOMLARNING KELIB CHIQISHI BO'YICHA BA'ZI BIR MULOHAZALAR.....	73
<b>3. Egamberdiyeva Zulfiya Zafar qizi.</b> OLTIN O'RDA DAVRIDA XORAZMDA IQTISODIY HAYOT.....	78
<b>4. Бобожонов У.</b> ҚЎЙҚИРИЛГАН ҚАЛЪА АНТИК ДАВР МАДАНИЙ МЕРОС МАРКАЗИ.....	82
<b>5. Umidbek Abdalov Matniyazovich. Ibodullayeva Oymarjon Shavkat qizi.</b> FROM THE HISTORY OF DIPLOMATIC AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KHIVA KHANATE AND THE RUSSIAN EMPIRE AT THE BEGINNING OF THE 18 <sup>th</sup> - 20 <sup>th</sup> CENTURIES.....	86

## PEDAGOGIKA

<b>1. Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi.</b> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING 4 K KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH.....	91
<b>2. Yunusxo'jayev Mustafo Zafarxo'ja o'g'li.</b> NAJMIDDIN KUBRO PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI.....	96
<b>3. Radjapova Feruza Abdullayevna.</b> PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI VA ULARNI PEDAGOGIK TA'LIMGA INTEGRATSIYA QILISH ALGORITMI...106	106

Urganch davlat universiteti professori

**Abdullayev U.I.**

Istanbul universiteti professori

Kursat Y.

Urganch innovatsion universiteti

dotsenti, **Satimov B.M.**

## OROLBO'YIDA MUDOFA ISTEHKOMLARINING KELIB CHIQISHI BO'YICHA BA'ZI BIR MULOHAZALAR



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21008845>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Orolbo'yi hududidagi mudofaa istehkomlarining kelib chiqishi va rivojlanishiga oid ayrim masalalar yoritiladi. Tadqiqotda istehkomlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy omillar tahlil qilinadi. Orolbo'yi qadimdan turli xalqlar va madaniyatlar tutashgan hudud bo'lib, bu yerda aholi xavfsizligini ta'minlash hamda hududiy barqarorlikni saqlash maqsadida turli mudofaa inshootlari bunyod etilgan.

Maqolada mudofaa istehkomlarining shakllanish jarayoni, ularning joylashuvi va vazifalari haqida umumiy mulohazalar bildiriladi. Shuningdek, istehkomlarning hududni tashqi tahdidlardan himoya qilish, aholi yashash manzillarini qo'riqlash va muhim iqtisodiy hamda strategik nuqtalarni nazorat qilishdagi o'rnini ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida mavjud ilmiy adabiyotlar, arxeologik ma'lumotlar va tarixiy manbalarga tayangan holda ayrim xulosalar chiqariladi.

Natijada Orolbo'yi mudofaa istehkomlari hudud tarixining muhim tarkibiy qismi ekanligi, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishi esa jamiyat taraqqiyoti hamda tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi asoslanadi. Mazkur mavzuni o'rganish Orolbo'yi tarixiy-madaniy merosini chuqurroq anglash, hududning o'tmishdagi mudofaa tizimlari va davlatchilik an'analarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola Orolbo'yi mudofaa istehkomlarining kelib chiqishiga doir ayrim nazariy qarashlarni umumlashtirishga hamda mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** S.P.Tolstov, V.M.Masson, Tagisken, xom g'isht, paxsa, M.G.Vorobeva, bronza.

---

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются некоторые вопросы происхождения и развития оборонительных укреплений Приаралья. В исследовании анализируются исторические, социальные, экономические и природно-географические факторы, оказавшие влияние на возникновение и развитие фортификационных сооружений региона. Приаралье с древнейших времен являлось территорией взаимодействия различных народов и культур, что обусловило необходимость создания оборонительных объектов для обеспечения безопасности населения и поддержания стабильности.

В статье представлены общие соображения относительно процесса формирования оборонительных укреплений, особенностей их расположения и основных функций. Особое внимание уделяется роли укреплений в защите территории от внешних угроз, охране населённых пунктов, а также контроле важных экономических и стратегических объектов. Исследование основывается на анализе научной литературы, археологических материалов и исторических источников, что позволяет сделать ряд обобщающих выводов.

В результате установлено, что оборонительные укрепления Приаралья являются важной частью исторического наследия региона, а их возникновение и развитие тесно связаны с процессами общественного развития и историческими изменениями. Изучение данной темы способствует более глубокому пониманию историко-культурного наследия Приаралья, особенностей его оборонительной системы и традиций государственности. Статья направлена на обобщение существующих научных взглядов на происхождение оборонительных укреплений региона и может служить основой для дальнейших исследований в данной области.

**Ключевые слова:** S.P.Tolstov, V.M.Masson, Tagisken, kirpich-сыres, soloma, M.G.Vorobeva, bronzа.

---

**Abstract.** This article examines several issues related to the origin and development of defensive fortifications in the Aral Sea region. The study analyzes the historical, social, economic, and natural factors that influenced the emergence and evolution of fortification structures in the area. Since ancient times, the Aral Sea region has served as a crossroads of different peoples and cultures, creating a need for defensive constructions to ensure security and maintain regional stability.

The article provides general observations on the formation process of defensive fortifications, their location, and their primary functions. Particular attention is paid to the role of these structures in protecting territories from external threats, safeguarding settlements, and controlling important economic and strategic sites. The research is based on the analysis of scholarly literature, archaeological evidence, and historical sources, allowing for several generalized conclusions.

The findings indicate that the defensive fortifications of the Aral Sea region constitute an important part of its historical heritage, while their emergence and development were closely connected with broader processes of social evolution and historical change. The study of this topic contributes to a deeper understanding of the historical and cultural heritage of the region, its defense systems, and traditions of statehood. The article aims to summarize existing scholarly views on the origin of defensive fortifications in the Aral Sea region and to contribute to further research in this field.

**Keywords:** S.P. Tolstov, V.M. Masson, Tagisken, raw brick, straw, M.G. Vorobeva, bronze.

---

**Kirish.** Orolbo'yida mudofa istehkomlarning kelib chiqishi mavzusi tarix fanida muhim muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur masala quyi Sirdaryo va Amudaryo havzalari hududlarida binokorlik va me'morchilik madaniyatining vujudga kelishi, qurilishda xom g'isht va paxsadan foydalanishning boshlanishi kabi dolzarb mavzular bilan bog'liqdir. Turli yillarda S.P.Tolstov, V.M.Masson, M.G.Vorobeva, M.I.Itina, Ye.Ye.Nerazik, M.M.Mambetullaev, O.A.Vishnevskaya, Yu.A.Rapoport, G'.Xodjaniyazov, Q.Sobirov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida Orolbo'yi binokorligi tarixi yuzasidan turlicha fikr-mulohazalar bildirilgan,[1] ammo Orolbo'yida mudofaa inshootlarining kelib chiqishi masalasi maxsus tadqiqot mavzusiga aylanmagan.

**Adabiyotlar tahlili.** Orolbo'yida mudofaa istehkomlarining kelib chiqishi masalasi tarix va arxeologiya fanlarida yetarlicha o'rganilgan mavzulardan biri bo'lsa-da, ushbu muammo maxsus tadqiqot obyekti sifatida kam yoritilgan. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda asosan Orolbo'yi hududida binokorlik va me'morchilik madaniyatining shakllanishi, xom g'isht hamda paxsadan foydalanish an'analari, ilk qal'a va istehkomlarning paydo bo'lishi masalalariga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotchilar tomonidan mudofaa inshootlarining vujudga kelishi turlicha talqin qilinadi. Ayrim olimlar bu jarayonni O'rta Osiyoning janubiy dehqonchilik vohalari bilan bo'lgan madaniy aloqalar ta'siri natijasi sifatida baholalar, boshqalari uni aholi migratsiyasi va qurilish tajribalarining hududga kirib kelishi bilan izohlaydilar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Orolbo'yidagi ilk istehkomlarning nafaqat harbiy, balki ma'muriy, xo'jalik va siyosiy markaz vazifalarini ham bajarganligi aniqlangan.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar Orolbo'yi mudofaa istehkomlarining kelib chiqishi va rivojlanishi murakkab tarixiy jarayonlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur masala bo'yicha ayrim bahsli jihatlar saqlanib qolayotganligi sababli, uni yanada chuqurroq o'rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

**Natijalar va tahlillar.** O'rta Osiyo janubiy viloyatlariga nisbatan Sirdaryo va Amudaryo havzalarining quyi qismi vohalarida binokorlik va me'morchilik sohasi xronologik davriy jihatdan o'z xususiyatlariga ega bo'lib rivojlangan. Neolit davridan boshlab Orolbo'yi sarhadlarida yer ustiga qurilgan cho'ziq gardish shaklidagi yog'och ustunli kulbalar hamda bronza davrida yarim yerto'lali kulbalar va yengil chaylalar qurilgan. Biroq qurilish texnikasining ancha takomillashib borishi, turar joylar barpo etilishidan yiroq, quyi Sirdaryoda Shimoliy Tagisken maqbaralarining binokorligidagi (mil. avv. IX-VIII asrlar) me'moriy tarhida va to'g'ri burchakli xom g'ishtning qo'llanilishida dastlab ifodalanadi.[2]

Ushbu maqbaralarning me'moriy an'analari dasht chorvadorlar olamida ma'lum bo'lmagan. Shu sababli S.P.Tolstov ularning qurilishida to'g'ri burchakli g'ishtning ishlatilishini "yuqori darajada rivojlangan janubiy sivilizatsiyalarning kuchli ta'siri" bilan bog'liq holda talqin qilgan.[3] Biroz so'ng M.A.Itina ham Sharqiy Orolbo'yida binokorlik usullarining yoyilish holatini Baqtriya madaniy ta'siri sifatida baholagan.[4]

H.Matyoqubovning yozishicha, faqat madaniy aloqalar asosida dasht chorvadorlari tomonidan yuqorida qayd etilgan binokorlik an'analari o'zlashtirish ular uchun murakkab jarayon bo'lgan, negaki chorvadorlar ko'p asrlar mobaynida yerto'lalar va kulbalarda an'anaviy yashab, qurilishda xom g'ishtdan foydalanishmagan.[5]

Bizningcha, Orolbo'yi so'nggi bronza davri aholisining turmush tarzi va iqtisodiy sohasini baholashda dehqonchilik yo'nalishining ahamiyati tadqiqotchilar tomonidan avvaldan oshirib yuborilgan. Shuning uchun ham Shimoliy Tagisken maqbaralarini barpo etgan aholi guruhlari o'troq turmushga ega bo'lgan va dehqonchilik ko'nikmalarini bilishgan chorvador qabilalar vakillari sifatida izohlangan.[6] Ehtimol, shu qarashlarga asoslanib, Tagisken quruvchilari janubiy sivilizatsiyalar va dasht madaniyatlarining o'zaro madaniy-iqtisodiy munosabatlarning ta'siri oqibatida ma'lum binokorlik uslublari va xom g'isht yasash ko'nikmalarini o'zlashtirishadi, degan xulosaga kelingan.[7] Lekin binokorlikdagi amaliy bilim va tajriba haqidagi muhim holat muhokamadan chetda qoldi.

Ayniqsa, bu masala keyingi tarixiy bosqichga tegishli bo'lib, mil. avv. VII-VI asrlarga oid Sharqiy Orolbo'yida xom g'isht va paxsadan barpo etilgan turarjoylar, harbiy istehkomlar aniqlanmagan, balki ushbu davrda ilk saklar namat o'tovlarda kun kechirishgan, mudofaa inshootlari esa bu yerda keyingi bosqichda, mil. avv.V-IV asrlarda paydo bo'ladi.

Xorazm vohasida eng qadimgi harbiy istehkom – mil. avv. VII-VI asrlar chegarasida qurilgan Ko'zaliqir qal'asi hisoblanadi. Yodgorlik Sariqamishbo'yi Dovdon o'zani qadimiy vohasida Amudaryodan 120 km. g'arbda joylashgan (Shimoliy Turkmaniston). Ko'zaliqir S.P.Tolstov tomonidan kashf etilgan. Shu paytlarda qal'a xarobalarida arxeologik qazishma ishlari olib borilmagan bo'lsa-da, lekin tadqiqotchi o'zining dastlabki tasavvurlarini talqin qilib, "devorlar ichida odam yashaydigan shahar" haqidagi g'oyani ilgari surgani [8], mazkur ishning 1.2 bandida qayd etilgan. 1948 yilda nashr etilgan "Po sledam drevnexorezmiyskoy sivilizatsii" nomli monografiyasida olim o'z qarashlarini birmuncha kengroq yoritgan (mazkur monografiya 1964 yilda o'zbek tilida chop etildi).

S.P.Tolstovning yozishicha, qadimda Ko'zaliqir aholisi "yodgorlikni qurshab olgan shaharning devorlari orasidagi yo'laklarda yashagan". Ko'zaliqir mudofaa devorining ichida, e'lon qilingan rekonstruksiya ko'ra, ana shunday uchta o'zaro parallel koridorsimon yo'lak bo'lib,

“ular bosqinlar, harbiy yurishlar va to‘qnashuvlar davrining timsolidir”. Bu to‘qnashuvlarga “jamoaning asosiy boyligi hisoblangan chorva sabab bo‘lgan, uni har qanday qilib bo‘lsa ham bosqinchilardan saqlab qolishga harakat etilgan” [9], ya‘ni mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan Ko‘zaliqirning keng ichki qismi mol qamaydigan joy, ya‘ni “qo‘ton” bo‘lgan. Bu borada qal‘aning vazifasi ochib berilgan, lekin uning kelib chiqishi masalasi muhokama qilinmagan.

Ko‘zaliqirda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida uning tarixiy topografiyasi o‘rganilib, 25 gektar joyni egallab olgan yodgorlik yuqori ichki qal‘a va uning tevaragidagi istehkomli “pastki shahar” qismlaridan iborat bo‘lganligi aniqlandi.[10] Ko‘zaliqirning mudofaa devorlari baland tepalikning tik yonbag‘irlarida qurilgan. Qalinligi 5 m. paxsa devorning uzunligi 3,5 km. ni tashkil etadi. Devor ichida, to‘g‘ri to‘rtburchak shinaklar orqali kamondan o‘q otish uchun mo‘ljallangan bitta yo‘lak mavjud bo‘lgan. Uning eni 2-2,5 metrga teng bo‘lgan va shu sababli turarjoy vazifasidan yiroq harbiy maqsadlarni amalga oshirish uchun qurilganligi bilinib turibdi. Devorning tashqi qismini har 2 metrda shinaklar kesib o‘tgan. Ular ikki yarusda “shaxmat” tartibida joylashgan. Shu tariqa kamonchi tiz cho‘kib va tik turib o‘q uzish imkoniga ega bo‘lgan. Bundan tashqari devor bo‘ylab har 30-35 m. masofada yarim dumaloq burjlar mavjud Ularning ichidan uchta shinak orqali yoydan o‘q otilgan. [11]

Ko‘zaliqir qal‘asi ichiga kirish uchun mo‘ljallangan uchta darvoza joyi aniqlangan, ularning yon tomonlari ikkita katta (6x4 m.) to‘g‘ri burchakli burjlar bilan mustahkamlangan. Burjlarning ichki xonalaridan shinaklar orqali o‘q otish mumkin bo‘lgan. Darvoza joylarining kengligi 4 metrni tashkil etadi. Shu ko‘rsatkichga ko‘ra, qisqa vaqt mobaynida keng darvoza joylari orqali qal‘a ichiga ko‘p sonli odamlarning kirib bekinish va chorva podalarini haydab kiritish imkoni bo‘lgan. Xususan, qal‘aning shu jihatini uqtirib o‘tgan S.P.Tolstov haq edi, tashqi bosqinlar havf-xatari paydo bo‘lgan paytlarda bunday qal‘alar, haqiqatdan ham, cho‘ponlar jamoalari va ularning chorva podalari uchun pana joyga aylangan.

Biroq Ko‘zaliqir nafaqat yuqorida qayd etilgan xususiyati bilan ajralib turadi. Uning ichki qal‘asida qabilalar uyushmasi sardorining qarorgohi – saroy qoldiqlari topib tekshirilgan. Ushbu hodisa qadimgi Xorazm tarixida nafaqat binokorlik – me‘morchilik sohasidagi yangilik, balki harbiy-siyosiy tizimda ilgari ma‘lum bo‘lmagan jarayonlarning boshlanishidan darak beradi.

Shu muhim arxeologik kashfiyotlar muallifi O.A.Vishnevskyaning yozishicha, saroy qabilalar uyushmasining xo‘jalik va e‘tiqod markazi xususiyatlarini o‘zida aks ettirdi. U 20 ta katta hovli va xonalarni o‘z ichiga olgan. Majmua tarhida ikkita yog‘och ustunli zal va maydoni 800 kv. metrdan iborat hovli ajralib turadi. Hovli devorlari bo‘ylab to‘g‘ri burchakli xom g‘ishtdan terilgan supalar mavjud. Hovlining bir tomonida g‘ishtdan qurilgan ko‘tarma taxt o‘rni joylashgan, unga g‘ishtli zinadan chiqish imkoni bo‘lib, taxt ro‘parasida muqaddas olov uchun otashkada barpo etilgan. Shuningdek, ikkita katta omborxonalar qazib ochilgan. Saroy omborxonalarida arpa va bug‘doy don mahsulotlari saqlangan.[12]

Ehtimol, aynan shu holat saroyini “xo‘jalik markazi” sifatida ham talqin qilishga asos bo‘lgan. Odatda saroylardagi omborxonalar qishloq xo‘jalik mahsulotlari (oziq-ovqat zaxiralari) va qimmatbaho narsalar (zargarlik), hunarmandchilik buyumlari va qurol-yarog‘lar saqlanadigan joy bo‘lgan. Shu sababli, bizningcha, Ko‘zaliqirni, umumiy tarzda, ma‘muriy-siyosiy markaz hamda tevarak aholi va uning asosiy boyligi – chorva uchun bekinadigan joy, harbiy istehkom sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir.

O‘tgan asrning 50 yillaridan boshlab, Xorazmda paxsa – xom g‘isht me‘morchiligi va mudofaa inshootlarining vujudga kelish muammosi ilmiy adabiyotlarda bahs-munozaralarga aylanib, avvaldan ikki yo‘nalishda –janubiy sivilizatsiyalar madaniy ta‘siri va janubdan Xorazm vohasiga “xorasmiylar” elatining migratsiyasi natijasi sifatida talqin qilina boshlandi.

Dastlab V.M.Masson Xorazm binokorligida xom g‘ishtdan foydalanish jarayonini Parfiya – Marg‘iyona madaniy ta‘siri bilan bog‘lab yoritgan.[13]

M.G.Vorobeva ushbu fikrga qo‘shilmagan bo‘lsa-da, lekin Xorazm vohasida paxsa – xom g‘isht qurilishi boshlanishiga oid ilk ko‘nikmalarni “o‘zga viloyatlar aholisidan olib o‘zlashtirishni e‘tirof etish to‘g‘ri keladi”, deb yozgan [14], chunki vohada loydan ishlangan qurilish materiallaridan qo‘llanishning avvalgi namunalari aniqlanmagan edi. Keyingi yillar arxeologik

tadqiqotlar ma'lumotlari ham binokorlik sohasidagi mahalliy ildizlar va an'analar masalasiga tegishli bu holatni o'zgartirmadi.

**Xulosa.** Tahlil qilingan muammo yuzasidan ayrim fikr-mulohazalarni bildirish maqsadga muvofiq. Orolbo'yida mudofaa inshootlarini barpo etish, binokorlik sohasida xom g'isht va paxsadan qurilish materiallari sifatida qo'llanilish an'analari mahalliy ildizlarga ega bo'lmaganligi holatini mazkur masalani ko'rib chiqqan barcha tadqiqotchilar tan olishadi.

Orolbo'yidan sharq yo'nalishidagi (Markaziy Qozog'iston, Yettisuv, G'arbiy Sibir) dashtlarda, so'nggi bronza va ilk temir davri chorvador qabilalar yashagan joylarda harbiy istehkomlar mavjud bo'lmagan. Aksincha, mudofaa inshootlarining tarixi va paxsa – xom g'isht me'morchiligi an'analari O'rta Osiyoning janubida chuqur ildizlarga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сагдуллаев А.С., Матякубов Х. К проблеме происхождения глинобитно-сырцово́й архитектуры в Хорезме // Вестник Национального университета Узбекистана. Специальный выпуск. 2013. – С. 59-64;
2. Абдуллаев У.И From the History of The Study of The Saks' Monuments in The Lower Syr Darya And Amu Darya Basins // Ilkogretim Online - Elementary Education Online, 2021. – С. 1462.
3. Толстов С.П. По древним дельтам... – С. 86.
4. Абдуллаев У.И From the History of The Study of The Saks' Monuments in The Lower Syr Darya And Amu Darya Basins // Ilkogretim Online - Elementary Education Online, 2021. – С. 1463.
5. Абдуллаев У.И. SOCIO-ECONOMIC RELATIONS IN BRONZE IN MIDDLE CENTRAL ASIA // Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 2019. – P. 8.
6. Толстов С.П. По древним дельтам... – С. 80.
7. Грязнов М.П. Тагискен – усыпальница вождей. Культура носителей мавзолеев // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М.–Л.: Наука, 1966. – С. 238.
8. Толстов С.П. Городища с жилыми стенами // КСИИМК. Вып. XVIII. – М.,1947. – С. 3-8.
9. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент, 1964. – Б.100-103, 21-расм.
10. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта... – С. 99.
11. Кўзалиқирда археологик тадқиқотлар О.А.Вишневская раҳбарлигида олиб борилган. Қаранг: Вишневская О.А.Раскопки городища Кюзелигыр // АО 1971. – М.: Наука, 1972. – С. 533-534.
12. Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзели-гыр... – С. 155-158.
13. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА. – №73. – М. – Л., 1959. – С. 54.
14. Воробьева М.Г. Дингильдже. Усадьба I тысячелетия до н.э. в древнем Хорезме // МХЭ. Вып. 9. – М., 1973. – С. 88.

boshlab, ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish, refleksiv-metagnitiv o'sish va dunyoqarash transformatsiyasigacha bo'lgan izchil jarayonni qamrab oladi.

Birinchi bosqich – qadriyatlarni anglash va o'zlashtirish. Bu bosqichda talaba ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat uchun muhim tamoyillar sifatida qabul qiladi. Halollik, adolat, shukronalik, vafodorlik, mehribonlik, kamtarlik va sabr kabi sifatlarning mazmunini anglash talabaning keyingi rivojlanishi uchun poydevor bo'ladi. Agar qadriyatlar ongli ravishda o'zlashtirilmasa, ular xulq-atvorda barqaror namoyon bo'lmaydi. Shu sababli modelda qadriyatlarga oid muloqot, hikmatlar tahlili, badiiy-pedagogik matnlar, tarixiy misollar va refleksiv savollar muhim vosita sifatida qo'llanadi.

Ikkinchi bosqich – ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish. Bu bosqichda qadriyatlar amaliy ko'nikma va xulq-atvor sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Talaba axloqiy vaziyatlarda qaror qabul qiladi, o'z fikrini asoslaydi, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qiladi, adolati muloqotga kirishadi va o'z harakatining oqibatini baholaydi. Mazkur kompetensiya pedagogik kasb uchun ayniqsa muhim, chunki o'qituvchi o'z shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich – ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish. Najmiddin Kubro merosida insonning kamoloti jamiyat bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shaxsning ichki pokligi uning boshqalarga bo'lgan munosabatida, muloqot odobida, hamkorlikda, insonparvarlikda va fuqarolik mas'uliyatida ko'rinadi. Shu sababli talabalarda ijtimoiy-kommunikativ sifatlarni rivojlantirish ma'naviy tarbiyaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich – refleksiv-metagnitiv rivojlanishni faollashtirish. Bu bosqichda talaba o'z xatosini ko'ra olish, uni tan olish, tuzatish, kelgusi rivojlanish maqsadini belgilash va o'z ustida ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Najmiddin Kubro ta'limotidagi tavba va o'zini tahlil qilish g'oyalari aynan shu bosqichning nazariy asosini tashkil etadi. Pedagogik amaliyotda bu bosqich portfoliolar, o'z-o'zini baholash varaqalari, refleksiv esselar va individual rivojlanish xaritalari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Beshinchi bosqich – dunyoqarash transformatsiyasi va komil inson idealiga yaqinlashish. Bu bosqichda talaba bilim, qadriyat, tajriba, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyatni yagona hayotiy pozitsiyaga birlashtiradi. Komil inson ideali zamonaviy pedagogik ta'limda axloqiy mas'uliyatli, kasbiy kompetent, insonparvar, ijtimoiy faol va o'z ustida ishlaydigan shaxsni tarbiyalash maqsadi bilan uyg'unlashadi.

2-jadval. Ma'naviy rivojlanish blokida shakllantiriladigan ijobiy sifatlar va ularning salbiy muqobillari

Ijobiy sifat	Pedagogik mazmuni	Salbiy sifat	Tarbiyaviy xavf
Halollik	Rostgo'ylik, vijdonlilik va haqiqatga sodiqlik.	Yolg'onchilik	Ishonchning yo'qolishi va axloqiy beqarorlik.
Mas'uliyat	Vazifa va burchni ongli bajarish.	Mas'uliyatsizlik	Burchga loqaydlik, kasbiy sustlik.
Insonparvarlik	Boshqalarga hurmat, mehr va yordamga tayyorlik.	Shafqatsizlik	Inson manfaatiga befarqlik.
Kamtarlik	O'zini yuqori qo'ymaslik, oddiylik.	Kibr	Boshqalarni mensimaslik.
Sabr-toqat	Qiyinchilikni matonat bilan yengish.	Sabrsizlik	Shoshqaloqlik, hissiy beqarorlik.
Bag'rikenglik	Turli fikr va qarashlarni hurmat qilish.	Murosasizlik	Nizo va inkor kayfiyati.
O'zini nazorat qilish	Nafs, hissiyot va xatti-harakatni boshqarish.	Nafsga berilish	Hirs va impulsiv qarorlar.
Ilmga intilish	Bilim olish va o'zini rivojlantirishga ehtiyoj.	Johillik	O'rganishga befarqlik.